

25% li qon - cho'p malhami bilan davolangan itlarda nazorat guruhidagi itlarga nisbatan klinik holatidagi o'zgarishlar o'rtacha 2-5 kunlar avval yaxshilanishga boshladi.

Dermatitlarni davolash bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarning natijalari ko'rsatishicha, qon cho'pdan ishlab chiqilgan dori vositasi bu jarayonni 9-10 kunlarda bartaraf etishga imkon yaratadi. Bunda uning 25% li malhami tuzalish muddatini 2-5 kunlarga qisqartiradi.

1-jadval

Dermatit bilan kasallangan itlarni 10% li qon – cho'p damlamasi va 25% li malhami bilan davolashda klinik ko'rsatkichlar

Klinik ko'rsatkichlar va ularning namoyon bo'lish muddatlari	
10% li qon – cho'p damlamasi	25% li qon – cho'p malhami
Qichishish 1-2 kunlarda yo'qoldi	Qichishish 1-2 kunlarda yo'qoldi
Giperemiya 4 chi kunda yo'qoldi	Giperemiya 3 chi kunda yo'qoldi
Terining shishishi 5-6 kunlarda pasaydi	Terining shishishi 2-3 kunlarda pasaydi
Ekssudatsiya 3 chi kunda yo'qoldi	Ekssudatsiya 3 chi kunda yo'qoldi
Jun qoplamasi 10-15 kunlarda tiklanib boshladi	Jun qoplamasi 7-10 kunlarda tiklanib boshladi
Klinik tuzalish belgilari 9-10 chi kunlarda namoyon bo'ldi	Klinik tuzalish belgilari 5-6 chi kunlarda namoyon bo'ldi

Xulosalar.

1. Qon – cho'p o'simligidan ishlab chiqilgan davolovchi vositalar yallig'lanishga qarshi, epitelizatsiyani jadallashtiruvchi, antimikrob, fungitsid, og'riqni pasaytiruvchi, o'smalarga qarshi ta'sirga ega.

2. Dermatitli jarayonni samarali davolash uchun 25% li qon - cho'p malhami va 10% li damlamasi bilan ishlov berilganda yaxshi natijalar kuzatildi.

3. Itlardagi dermatitlarni davolash uchun 25% li qon - cho'p malhami qo'llanganda hayvonlardagi dastlabki tuzalish belgilari o'rtacha 5-6 kunlarda kuzatildi, 10% li qon - cho'p damlamasi qo'llanganda esa bu jarayon 9-10 kunlar davom etdi.

SAMARQAND VILOYATI SHAROITIDA QO'YLAR ORASIDA OSHQOZON-ICHAK TREMATODOZLARINING TARQALISHI

**S.Erimov – magistratura talbasi, M.Tayloqova – talaba,
B.Salimov - ilmiy raxbar, professor**

Annotatsiya: Gelmintozlar yer sharining barcha mintaqalarida uchrab, ularning turlarini epizootik holati har xil biogeosenozlarda turli omillar tasirida o'ziga hos tarzda o'zgarib turadi. Maqolada respublikamizda so'ngi yillarda agrar sohani chorvachilik yo'nalishida ustuvor sanalgan qoramolchilik va qo'ychilik tarmoqlari rivojiga to'sqinlik qiluvchi, katta iqtisodiy zarar keltiradigan xavfli oshqozon- ichak trematodalarini sanalgan paramfistomatoz kabi guruh kasalliklarini keng tarqalib borayotganligi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: paramfistomatoz, liorxoz, kalikoforoz, gastrotlyaksoz, planirbidae, biogeosenoz, antigelmintik.

Kirish: O'zbekistonda mustaqillik yillarida kichik biznes va tadbirkorlikni rivoji uchun keng qamrovli islohotlar olib borilib, natijada respublikamiz iqtisodida izchil va turg'un o'sishga, aholini turmush darajasini yildan-yilga yaxshilanishiga erishilmoqda. Bunday tarkibiy yangilanishlar chorvachilik yo'nalishida ham amalga oshirilib ixtisoslashgan, ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari tashkil etildi, chorvani asosiy qismi davlat tasarrufidan aholi qo'liga o'tkazildi. Bajarilgan tadbirlar mahsuli sifatida shuni ko'rsatish kifoyaki, agarda to'qsoninchi yillarda yurtimiz aholisini chorva va agrar soha mahsulotlariga bo'lgan talabi asosan import hisobiga qondirilgan bo'lsa, mustaqillikdan so'ng hozirgacha qariyb ularning 96 foizi ichki imkoniyatlardan foydalangan holda o'zini-o'zi taminlashga o'tildi.

Bunday ulkan zafarlar yurtimizda qishloq xo'jaligi sohasida olib borilayotgan odilona siyosat maxsuli hisoblanib, ularni negizida Respublika Prezidenti I.A.Karimovning 2006-yil 23-martdagi "Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-308 chi va 2008-yil 21-apreldagi "Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirishni rag'batlantirishni kuchaytirish hamda chorvachilik maxsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Mavzuning dolzarbligi: So'ngi yillarda respublikamizni turli biosenozlarda boqiladigan chorva hayvonlari (asosan qoramol, qo'y va echkilar) ni bozor tizimi orqali viloyatlar, tumanlar, qishloqlar orasida ichki migratsiyasi orqali ba'zi havfli gelmintozi kasalliklari qo'zg'atuvchilarning areali kengayib borayotganligi kuzatilmoqda. Bunga kavshovchi hayvonlarning oshqozon-ichak trematodalaridan *Paramphistomatata* (Szidat, 1936) *Skrjabin et Schulz, 1937* kenja turkimiga tegishli guruh (paramfistomoz, liorxoz, kalikoforozi, gastrotlyaksoz) kasalliklari misol bo'ladi va ular *Paramfistomatozlar* deb yuritiladi. O'zbekiston hududida qoramol, qo'ylar orasida *Paramphistomatidae* Fishoeder, 1901 avlodining *Paramphistomum ichikawai* Fukui, 1922 turi, *Liorchis Velichko* 1966 avlodining *Liorchis scotiae* (Willmott, 1950) va *L.hiberniae* (Willmott, 1950) turlari, *Calicophoron Nasmak, 1937* avlodining *Calicophoron calicophorum* (Fischneider, 1901), *C.ercshowi* Davydova, 1959 turlari, *Gastrothylax Poirier, 1883* avlodining *Gastrothylax crumenifer* (Creplin, 1847) turi uchirishi qayd etilgan. Kasallik invaziya tashuvchi hayvonlar va kasallik o'choqlaridan yig'ishtirilgan ozuqalar orqali bir hudutdan boshqasiga o'tadi va o'sha mintaqada kasallikka moyil hayvon va oraliq xo'jayin hisoblangan *Planirbidae* avlodiga mansub g'altaksimon chuchuk suv malyuskalari bo'lgandagina tarqaladi. O'zbekiston sharoitida paramfistomatozlarni qoramollar orasidagi epizootologik holati 19 asrning ikkinchi yarmidan boshlab chuqur o'rganilib kelinayotgan bo'lsa, mayda shoxli hayvonlar orasida esa 2008 yildan boshlab epizootik jarayonni kuchayganligi qayd qilingan. (B.Salimov, A.Daminov, T.Tayloqov, H.Otaboev K.O'roqov, Sh.Qurbonov va boshqalar) Hayvonlar kasallik bilan alimentar ravshda zararlanib, voyaga yetmagan trematodalar asosiy xo'jayin organizmi ingichka ichagini oldingi qismi va shirdonning shilliq qavatini yorib kiradi va kuchli kataral va gemaragik yallig'lantirib kasallikni o'tkir oqimini sodir etsa, voyaga yetgan paramfistomatlar rangi qizg'ich tusda bo'lib, o'zlarini kuchli rivojlangan qorin so'rg'ichlari orqali katta qorin ba'zan esa to'r qorining shilliq qavatiga yopishib qon so'rib oziqlanishi tufayli asosiy xo'jayin organizmida juda og'ir patologik o'zgarishlar, kuchli oriqlashni, animiya, hayotchanligi va maxsuldorligi past qo'zilarini tug'ilishi, aksariyat hollarda esa qo'ylarning madorsizlanib yotib qolishi va o'limi kuzatiladi. Davolashda qo'llaniladigan antigelmintlarni qariyb samarasizligi oqibatida hozirda bu guruh kasalliklari tomonidan katta iqtisodiy zarar ko'rilmogda. Chorvamollarini paramfistomatozlardan to'liq holi qilish uchun qo'zg'atuvchining biologik rivojlanishidan va tur tarkibidan kelib chiqqan holda kurashish eng maqbul yo'li sanaladi.

Tadqiqot maqsadi: Samarqand viloyati sharoitiga qo'ylarni oshqozon-ichak trematodasi paramfistomatozlar bilan zararlanish darajasini o'rganish va ularni yangi o'choqlarini topish.

Tadqiqot obyekti va usullari: Tadqiqot ishini bajarishda Samarqand viloyatida shaxsiy yordamchi va dehqon fermer xo'jaliklarida asraladigan qo'ylarning to'g'ri ichagidan olingan tezak namunalarini ketma-ket yuvish usulidan foydalanildi. Buning uchun har bir hayvondan olingan namunani 5 gr atrofida ajratilib 150-200 ml lik shisha yoki plastmassa stakanlarga solindi, ustiga 5-10 ml atrofida suv quyilini probiraning ostki qismi yoki maxsus tayyorlangan cho'p tayoqchani uchi yordamida aralashtirildi. Uning ustiga 100-150 ml suv quyilib qaytadan aralashtirildi. Aralashmadagi ozuqa qoldiqlarini ajratib tashlash uchun u boshqa stakanga simdan tayyorlangan (diametri 0.15-0.20 mm li) to'rdan sizib olinadi. Shundan so'ng aralashma 5 minutgacha tinch qoldiriladi, keyin esa asta-sekin uning 3/4 qismi sekinlik bilan to'kib yuborildi va boshqa stakanga doka yordamida sizib o'tkazildi. Ustiga yana suv solindi va 4-5 minutdan so'ng yana uning keraksiz qismi to'kildi. Ushbu jarayon stakandagi cho'kma tiniq xolga kelgunga qadar takrorlandi. Tayyorlangan tiniq holdagi cho'kmaning yuza qismi 3-4 minutdan so'ng to'kib tashlandi, qoldiq cho'kma esa aralashtirilgan holda katta buyum shishasiga qo'yilib, mikroskopning

7-10 okulyari va 8 obetivi ostida tekshiriladi. Mikroskop ostida ko'rilgan trematoda tuxumining hajmiga, shakliga, rangiga ko'ra ularni qaysi tur parazitga tegishli ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari: Tekshirish uchun namunalar 2015-yil 27-noyabrdan 2016-yil 22-martgacha Samarqand viloyatining Bulung'ur, Pastdarg'om, Toyloq tumanlarida shaxsiy va yordamchi fermer xo'jaliklarida daryo, kanal, ariqlar bo'ylarida xaydab boqiladigan qo'ylardan olindi va ularni Sam.QXI.ning Veterineriya fakulteti „Hayvonlarni yuqumli va invazion kasalliklari“ kafedrasining Zoologiya va Parazitologiya ilmiy tekshirish laboratoriyasida tekshirildi. Tekshirishlar natijasida sug'oriladigan tog' oldi biosenozlarida qo'y-echkilar orasida paramfistomatozlarni keng tarqalib borayotganini aniqlandi. Tadqiqot natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Samarqand viloyati sharoitida qo'ylarni paramfistomatozlar bilan zararlanish darajasi

№	Tumlanlar	Jami tekshirilgan hayvonlar soni	Paramfistomat tuximlari topildi(invaziya ekstensivligi)		Invaziya intensivligi (tuhimlar soni bo'yicha)			
			Sonda	Foizda	jami topilgan tuximlar soni	Minimal	Maksimal	O'rtacha
1	Bulung'ur	109	42	38,5	1764	2	229	42
2	Pastdarg'om	119	14	12,0	392	2	197	28
3	Tayloq	35	7	20,0	28	2	12	4
4	Jami	263	63	24,0	2184	2	229	34,6

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki invaziya ekstensivligi va intensivligi jihatdan Zarafshon daryosining yuqori oqimida joylashgan Bulung'ur tumanini Farmontepa va Beshkuvi qishloqlarida aholi qo'lida asraladigan 109 bosh qo'ylarida paramfistomatlar bilan zararlanish juda yuqori darajada bo'lib 38,5 foizni tashkil etdi, ayrim namunalardan 2 ta ayrimlaridan esa 229 tagacha, jami 1764 ta parazit tuxumlari topildi. Pastdarg'om tumanida esa Darg'om va Dayro obod qanallariga yaqin joyda joylashgan Shombuloq, O'klon, Imom ota, Dovul, Beklar qishloqlarida shaxsiy xo'jaliklarda haydab boqiladigan 119 bosh qo'ylarni 14 foizidan ayrimlaridan 197 tagacha, jami 392 ta paramfistomatlar tuxumi, Toyloq tumanini Amur Temur qishlog'idan qanallar yoqasida boqiladigan 35 ta qo'ydan 20 foizidan 25 ta paramfistomatlar tuximi borligi aniqlandi.

Xulosalar:

1. Tadqiqot natijalaridan ko'rinib turibdiki sug'oriladigan tog' oldi biosenozlarida qo'ylar orasida paramfistomatoz kasalligi qo'zg'atuvchilarini bunday keng darajada tarqalishi juda katta epizootologik ahamiyatga ekanini bildiradi.

2. Kasallikka qarshi kurashish uchun uni davolash va oldini olish choralarini takomillash talab etiladi.

ҚОРАМОЛЛАР ФАСЦИОЛЁЗИНИ ДАВОЛАШДА АЙРИМ АНТИГЕЛЬМИНТИК ДОРИ ВОСИТАЛАР САМАРАДОРЛИГИНИ ЎРГАНИШ

Ж.Ражабов – магистратура талабаси, Ф.Қурбонов – ассистент

Аннотация. Айрим Клозантел-5% (Узбиокомбинат), Клозантел -5% (Хитой) ва Альбен-20% препаратлари йирик шохли ҳайвонлар фасциолёзига қарши қўлланилди.

Калит сўзлар. Фасциолёз, Клозантел, Альбен, *Fasciola hepatica*, *Fasciola gigantica*.

Мавзунинг долзарблиги. Республикамиз иқтисодиётини ривожлантириш ва халқ фаровонлигини таъминлашда чорвачиликни ривожлантириш муҳим аҳамият касб этади.